



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O'ZBEKISTONDA TIBBIYOT SOHASIDAGI ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARI TARIXI (DERMATOLOGIYA VA VENEROLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI MISOLIDA)

Toshpo'latov Bekzod Shuxratovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda tibbiyot sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining shakllanishi va rivojlanish tarixi dermatologiya va venerologiya sohasi misolida tahlil qilingan. Dermatologiya va venerologiya ilmiy tadqiqot instituti keyinchalik respublika ixtisoslashtirilgan markazi sifatida faoliyat yuritib, sohadagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy tibbiy xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi muassasaga aylangan

Kalit so'zlar. Dermatologiya, venerologiya, tibbiyot tarixi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy kadrlar, ilmiy maktab, O'zbekiston, teri-tanosil kasalliklari, tibbiyot instituti, tibbiy ilmiy markazlar.

ИСТОРИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ОБЛАСТИ МЕДИЦИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ИНСТИТУТА ДЕРМАТОЛОГИИ И ВЕНЕРОЛОГИИ)

Тошпулатов Бекзод Шухратович
Университет экономики и педагогики, доцент (PhD)

Аннотация

В статье анализируется история становления и развития научно-исследовательских учреждений в области медицины в Узбекистане на примере сферы дерматологии и венерологии. Научно-исследовательский институт дерматологии и венерологии впоследствии функционировал как республиканский специализированный центр и стал учреждением, координирующим научные исследования и практические медицинские услуги в данной области.

Ключевые слова: дерматология, венерология, история медицины, научно-исследовательские учреждения, система здравоохранения, медицинские кадры, научная школа, Узбекистан, кожно-венерические заболевания, медицинский институт, медицинские научные центры.

THE HISTORY OF MEDICAL RESEARCH INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN (A CASE STUDY OF THE RESEARCH INSTITUTE OF DERMATOLOGY AND VENEREOLOGY)

Toshpo'latov Bekzod Shuxratovich
University of Economics and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the history of the establishment and development of medical research institutions in Uzbekistan through the example of dermatology and venereology. The Research Institute of Dermatology and Venereology, which later functioned as a Republican Specialized Center, is examined as a key institution coordinating scientific research and practical medical services in this field. Particular attention is paid to its contribution to the study of skin and venereal diseases, the training of qualified medical personnel, the formation of scientific schools, and the improvement of the national healthcare system. The findings provide a deeper understanding of the development of dermatology and venereology as well as the evolution of medical science in Uzbekistan.

Keywords: dermatology, venereology, history of medicine, research institutions,

healthcare system, medical personnel, scientific school, Uzbekistan, skin and venereal diseases, medical institute, medical research centers.

Tibbiyot sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari har qanday mamlakat sog'liqni saqlash tizimining intellektual va innovatsion asosini tashkil etadi. Ular nafaqat aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshiradi, balki yuqori malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, yangi diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda ham muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda tibbiyot sohasidagi ilmiy muassasalar rivojlanishi tarixini o'rganish mamlakat sog'liqni saqlash tizimining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda dermatologiya va venerologiya sohasining institutsional rivojlanishi XX asr davomida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam tizimining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Teri va tanosil kasalliklarining keng tarqalishi, ularning ijtimoiy ahamiyati hamda profilaktika ishlarini tashkil etish zarurati sohada maxsus ilmiy muassasalar tashkil etilishini taqozo qildi. Shu jarayon natijasida respublikada dermatologiya va venerologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi maxsus muassasa vujudga kelib, keyinchalik mamlakatdagi yetakchi ilmiy-amaliy markazlardan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review)

Dermatologik va venerologik kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha ilmiy markaz tashkil etish masalalari Turkiston o'lkasi shifokorlarining I–II qurultoylarida (1922, 1925-yillar) ko'tarilgan edi. 1924-yilda Toshkentda 5 nafar shifokor va 30 o'rinli birinchi ixtisoslashtirilgan teri-venerologik dispanser tashkil etildi. Dispanserning bosh shifokori A.A. Sgibov bo'lgan, 1929–1932-yillarda esa bu lavozimni M.V. Borzov egallagan. 1926-yilda Samarqandda ham teri-venerologik dispanser ochildi. Keyinchalik respublikada teri-venerologik muassasalar tarmog'i asta-sekin kengaya bordi. 1932-yilda teri va venerologik kasalliklarga chalingan bemorlar uchun 300 ta, zamburug'li kasalliklarga chalingan bemorlar uchun esa alohida 100 ta o'rinli, jami 59 ta teri-venerologik muassasa faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, Toshkent va Samarqandda ikkita teri va venerologik kasalliklar klinikasi hamda umumiy davolash-profilaktika muassasalarida 35 ta ixtisoslashtirilgan kabinet faoliyat ko'rsatgan. 1932-yilda shifokorlarning malakasini oshirish bo'yicha O'rta Osiyo instituti tashkil etilib, unda teri va venerologik kasalliklar kafedrasini ochilgan. Bunday keng tarmoqning mavjudligi O'zbekistonda dermatologiya va venerologiya bo'yicha ilmiy hamda amaliy masalalarni o'rganadigan yagona markaz tashkil etish zaruratini yuzaga keltirdi [1].

1932-yil 25-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston shifokorlarining Birinchi qurultoyida Toshkentda Respublika ilmiy-tadqiqot dermatologiya va venerologiya institutini tashkil etish zarurligi belgilandi. 1932-yil 7-iyunda Xalq Komissarlari Sovetining 1816-sonli qarori hamda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi qaroriga binoan Toshkent teri-venerologik dispanseri negizida O'zbekiston ilmiy-tadqiqot teri-venerologiya instituti tashkil etildi. Dermatologiya va venerologiya ilmiy-tadqiqot instituti o'z vaqtida respublikadagi dermatovenerologiya sohasining yagona ilmiy-metodik, o'quv va tashkiliy markazi hisoblangan [2].

1930–1980-yillar oralig'i O'zbekistonda dermatologiya va venerologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanish davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda ixtisoslashgan tibbiy yordam tizimi kengayib, teri-tanosil kasalliklarini aniqlash, davolash va profilaktika qilishga qaratilgan dispanser tizimi shakllantirildi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar asosan infeksiyon teri kasalliklari, venerik kasalliklarning tarqalishi va ularni bartaraf etish masalalariga yo'naltirildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, ilmiy-amaliy tajribani umumlashtirish va uni amaliyotga joriy etish jarayonlari orqali mazkur soha respublika sog'liqni saqlash tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. 1970–1980-yillarga kelib esa dermatologiya va venerologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar institutsional jihatdan mustahkamlanib, ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalarining faoliyati yangi bosqichga

ko‘tarildi [3].

1989–1991-yillarda institut S-10-sonli “Venerik kasalliklarni diagnostika qilish, davolash, profilaktika qilish va ularga qarshi kurashning zamonaviy tashkiliy shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish” mavzusi bo‘yicha faoliyat olib bordi. Mazkur dastur doirasida 4 ta yirik ilmiy-tadqiqot ishi bajarildi. Ularning barchasi respublika va mintaqaviy dasturlar tarkibiga kirgan. Shundan ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan mavzular soni 2 ta, huquqiy muhofaza qilinadigan (patentlash imkoniyatiga ega) mavzular soni esa 2 ta edi. Ushbu davrda institut tomonidan 1 ta ixtiro uchun mualliflik guvohnomasi olingan [4].

1989–1991-yillar davomida yakunlangan ilmiy-tadqiqot ishlari soni 5 tani, himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari soni esa 3 tani tashkil etdi. Ushbu yillarda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi amalga oshirilmagan. Mazkur davrda jami 191 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 160 tasi ilmiy maqola bo‘lib, jumladan, xalqaro miqyosda 8 ta, MDH miqyosida 122 ta, respublika miqyosida 28 ta ilmiy nashr chop etilgan. Shuningdek, 1 ta monografiya va 4 ta metodik tavsiyaning nashr etilgani ilmiy faoliyat natijalarini yanada yaqqol ko‘rsatadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda tibbiyot sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining shakllanishi va rivojlanish tarixi Dermatologiya va venerologiya ilmiy-tadqiqot instituti misolida o‘rganildi. Bunda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tibbiyot tarixi, ilm-fan tarixi va institutsional rivojlanish konsepsiyalari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod yordamida dermatologiya va venerologiya sohasining O‘zbekistondagi shakllanish bosqichlari, ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi hamda faoliyatining rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi. Tarixiy-qiyyosiy metod orqali institut faoliyatining turli davrlardagi o‘zgarishlari hamda uning respublika sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, muassasaning ilmiy, tashkiliy va amaliy faoliyati boshqa tibbiy ilmiy markazlar faoliyati bilan qiyosiy jihatdan baholandi.

Tadqiqot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, tarixiy arxiv materiallari, ilmiy monografiyalar, statistik ma‘lumotlar, ilmiy maqolalar hamda Dermatologiya va venerologiya ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatiga oid rasmiy manbalardan foydalanildi. Mazkur manbalar kontent-tahlil usuli yordamida o‘rganilib, ilmiy muassasaning rivojlanish bosqichlari, ilmiy maktablarning shakllanishi va tibbiy kadrlar tayyorlashdagi o‘rni aniqlashtirildi.

(Natijalar va Muhokama) Results and Discussion

Institutdagi tadqiqotlar nafaqat maqolalarda, balki xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda ham o‘z aksini topdi. Ushbu davrda institut olimlari xalqaro simpoziumlarda 3 ta, MDH miqyosidagi anjumanlarda 3 ta hamda respublika konferensiyalarida 36 ta ma‘ruza bilan ishtirok etdilar [6].

Institut xodimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etilgan va nashr qilingan. Jumladan, ular Yaponiyada bo‘lib o‘tgan Allergologiya va klinik immunologiya bo‘yicha XIV xalqaro kongress materiallarida e‘lon qilingan [7].

1992–1994-yillarda institut “Venerik kasalliklarni diagnostika qilish, davolash, profilaktika qilish va ularga qarshi kurashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, dermatovenerologik xizmatni takomillashtirish” nomli davlat ilmiy-texnik dasturi asosida faoliyat yuritdi. Mazkur dastur doirasida ustuvor va huquqiy muhofazaga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan vazifalarni hal etishga qaratilgan 3 ta respublika ilmiy mavzusi bajarildi. Ushbu yillarda institut ilmiy xodimlari tomonidan 7 ta ilmiy-tadqiqot ishi (ITI) yakunlanib, ulardan 2 tasi doktorlik dissertatsiyasi va 6 tasi nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilingan [8].

1992–1994-yillarda jami 171 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan 1 tasi monografiya edi. Shuningdek, 161 ta ilmiy maqola e‘lon qilingan bo‘lib, ulardan 101 tasi

respublika miqyosida, 15 tasi MDH mamlakatlari miqyosida va 25 tasi xorijiy davlatlarda chop etilgan. Mazkur davrda institut tomonidan 4 ta mualliflik guvohnomasi olingan [9].

Institutning 1989–1991 hamda 1992–1994-yillardagi ilmiy faoliyatini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, institut faoliyati ustuvor ilmiy vazifalarni hal etishga qaratilgan, yirik va huquqiy muhofaza qilinadigan mavzular tomon yo'naltirilgan edi.

Bundan tashqari, institut xodimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari Xarkov shahrida o'tkazilgan Ukraina dermatovenerologlarining VI syezdi ma'ruzalari tezislarida, "Monooksigenaza tizimi (nazariy va amaliy jihatlar)" mavzusidagi respublika simpoziumi materiallarida, Kopengagen (Daniya) shahrida o'tkazilgan xalqaro kongress materiallarida, O'zbekiston Respublikasi biokimyogarlarning II konferensiyasi materiallarida, Vena (Avstriya) shahrida o'tkazilgan dermatologlar va venerologlarning xalqaro kongressi materiallarida, Markaziy Osiyo pulmonologlari va allergologlarining I kongressi materiallarida, "Teri disxromiyalari va zamonaviy dermatovenerologiyaning boshqa muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida, turkiy tilli mamlakatlar dermatologlarining III xalqaro kongressi materiallarida nashr etilgan [10].

Institutning ushbu yillardagi ilmiy faoliyatini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- institut ustuvor ilmiy vazifalarni hal etishga qaratilgan, yirik va huquqiy muhofazaga ega bo'lish imkoniyatiga ega mavzular ustida ishlashga o'tgan;
- himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari soni 2 taga ko'paygan;
- himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari soni 3 taga oshgan;
- ixtirolar uchun olingan mualliflik guvohnomalari soni ortgan;
- chop etilgan ilmiy maqolalar soni ko'paygan;
- xalqaro ilmiy hamkorlik sezilarli darajada kengaygan [11].

Xususan:

- xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar soni 12 taga oshgan;
- xalqaro simpozium va kongresslardagi ma'ruzalar soni 4 taga ko'paygan.

Shulardan kelib chiqqan holda, institut olimlari respublika aholisiga ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan dermatovenerologik yordamni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirdilar.

Xulosa qilib aytganda, 1930–1980-yillar davri O'zbekistonda dermatologiya va venerologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining shakllanishi hamda institutsional jihatdan mustahkamlanish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda ixtisoslashgan tibbiy yordam tizimi yo'lga qo'yilib, dispanserizatsiya, profilaktika va davolash ishlari ilmiy asosda tashkil etildi. Shu bilan birga, sohada mutaxassis kadrlar tayyorlash, ilmiy maktablarni shakllantirish va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish jarayonlari izchil ravishda amalga oshirildi. Natijada, 1980-yillarga kelib dermatologiya va venerologiya sohasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida to'liq shakllanib, keyingi bosqichlarda maxsus ilmiy-tadqiqot institutlarining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://dermatology.uz/markaz-tarixi/>
2. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 16-varaq.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dermatologiya_va_venerologiya_ilmiy_tadqiqot_instituti
4. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 16-varaq.
5. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 16-varaq.
6. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 16-varaq.
7. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 16-varaq.
8. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 17-varaq.
9. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 17-varaq.
10. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 18-varaq.
11. O'zITTHMA, 377-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 18-varaq.